

## ADABIY T'ALIMNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Duschanova Nilufar Sabirbayevna

Urganch Ranch texnologiya universiteti

“Pedagogika va aniq fanlar” kafedrası

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

### МЕХАНИЗМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Дусчанова Нилуфар Сабирбаевна

Технологический университет Ургенч-Ранч

Кафедра «Педагогики и точных наук»

Доктор философии педагогических наук

### MECHANISMS OF IMPLEMENTATION OF LITERARY EDUCATION

Duschanova Nilufar Sabirbaevna

Urganch Ranch University of Technology

Department of "Pedagogy and exact sciences"

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda pedagogik ta’limga yangi ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida kirib kelgan klaster yondashuviga zamonaviy talablarga mosligi, tizimdagagi muammolar va ularni hal qilishda ta’lim, fan va ishlab chiqarish bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni ta’minlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Pedagogik ta’lim klasteri tizimning bugungi holatidan kelib chiqilganda hayotiy zarurat ekanligi oydinlashadi. Maqolada pedagogik klasterlar orqali adabiyot ta’limi - adabiy ta’limni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** adabiy ta’lim, o‘rta ta’lim, pedagogik ta’lim, ta’lim klasteri, shakl.

**Абстракт:** В последние годы кластерный подход, вошедший в педагогическое образование как новое научно-практическое направление, соответствует современным требованиям и подчеркивает взаимную гармонию между образованием, наукой и производственными звенями при решении задач в системе. Это важно еще и потому, что оно направлено на езду. Исходя из современного состояния системы, становится понятно, что кластер педагогического образования является жизненной необходимостью. В статье рассматриваются вопросы литературного образования – литературного образования через педагогические кластеры.

**Ключевые слова:** литературное образование, среднее образование, педагогическое образование, образовательный кластер, форма.

**Abstract:** In recent years, the cluster approach, which has entered pedagogical education as a new scientific-practical direction, is compatible with modern requirements, and emphasizes the mutual harmony between education, science and production links in solving problems in the system. It is also important because it is aimed at riding. Based on the current state of the system, it becomes clear that the pedagogical education cluster is a vital necessity. The article examines the issues of literature education - literary education through pedagogical clusters.

**Key words:** literary education, secondary education, pedagogical education, educational cluster, form.



[nilufarduschanova387@gmail.com](mailto:nilufarduschanova387@gmail.com)  
+998997429330

ORCID: 0009-0002-0324-3174

## KIRISH

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri borasida amalga oshirilgan tadtqiqotlarda uning ta’lim, fan va ishlab chiqarish subyektlarining o’zaro manfaatlari hamkorligini ta’minalashga qaratilgan umumiy metodologik asosga ega hodisa ekanligi aytib o’tilgan. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri muayyan fan sohasida xususiy metodologik ahamiyat kasb etadi va uni amaliyatga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda jamiyatga mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, hamkorlik qila oladigan, harakatchan, nostandart va kreativ fikrlash ko’nikmasiga ega hamda mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissi rivojlangan ziyoli, axloqli xodimlar kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishning shartlaridan biri esa maktabgacha va umumiy o’ta ta’limning oliy ta’lim bilan hamkorlik an’analari va tajribasidan foydalanishdir. Pedagogik ta’lim klasteri doirasida adabiyot ta’limi misolida umumiy o’rta ta’lim subyektining roli va ahamiyati quyidagi yo’nalishlarda ko’zga tashlanadi [1]:

1. Ta’limda ijtimoiy sheriklik tamoyiliga asoslangan hamkorlikni yo’lga qo‘yish.
2. Adabiyot ta’limida o’zaro hamkorlikka asoslangan o’qitish texnologiyalarini ishlab chiqish.
3. Adabiyot ta’limida o’zaro hamkorlik shakllarini aniqlashtirish.
4. Adabiyot ta’limida klaster hamkor subyektlarining vazifalarini belgilab olish va tavsiflash.
5. Adabiyot o’qitishni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion loyihalar ishlab chiqish va ularni “maktab-laboratoriya”larda tajriba- sinovdan o’tkazish.
6. Adabiyot ta’limida ilmiy salohiyat oqimini tartibga solish orqali maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish.

Mamlakatimizda ta’lim tizimni to‘g’ri tashkil qilish doimo davlat faoliyatining muhim tarkibiy qismi, ta’lim olish esa muhim qadriyat hisoblanib kelgan, chunki u jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi uchun asos, ijtimoiy barqarorlik omillaridan biri, intellektual resursning o’sish manbai va aholining ma’naviy-axloqiy salohiyatidir. Hozirgi kunda

aholining ta’limga bo’lgan ehtiyoji ortib, oliy ta’limga talabgorlar soni ko‘payib bormoqda. Bugungi yangi O’zbekiston sharoitida turli tipdagagi ta’lim muassasalari tarmog’i kengaymoqda, ular o’rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda, ayni paytda takomillashib, murakkablashib ham bormoqdaki, ta’lim infratuzilmasida boshqaruv, metodik va ilmiy-tadqiqot xizmatlarining shakllanishi natijasida kadrlar bazasi mustahkamlanishiga, ta’limning shakli, mazmuni va usullari yangilanishiga hamda bilimning hayotiy ahamiyatini oshirishga qaratilgan ta’lim berishga e’tibor qaratilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ta’limda ijtimoiy sheriklik tamoyilini qo’llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy sheriklik ta’limiy, ilmiy, uslubiy resurslarni maktabgacha ta’limdan oliy o’quv yurtlarigacha taqsimlanishiga, hamkorlikdagi faoliyatini to‘g’ri yo’naltirish va rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim sohasini rivojlantirish uchun jamiyat resurslaridan unumli foydalanish, ta’lim subyektlarining ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik qobiliyatini shakllantirish uchun ta’lim jamoasi va klaster hamkor subyektlarining hayotiy tajribasini to‘plash, ijobiy jihatlarni ommalashtirish lozim [2].

Ijtimoiy sheriklik barcha hamkorlar uchun umumiy bo’lgan ustuvor istiqbolni ko‘zlagan holda samarali va muvaffaqiyatlari harakat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy sheriklikka asoslangan tadbirlar majmui hamkorlikka jaib etilgan jamiyat a’zolariga eng samarali va tejamkor yordam ko’rsatish imkonini beradi. Bunday hamkorlikka asoslangan umumiy o’rta ta’lim maktabi va oliy ta’lim munosabati quyidagi mexanizmlarga asoslanmog’i lozim [3]:

- ochiqlik va hamkorlik;
- rivojlanish, muloqot va fikr almashishga ehtiyoj;
- jamiyatda ko’rsatilayotgan ta’lim xizmatlari sonini oshirishga qaratilgan hamkorlik va boshqalar.

Hozirgi kunda ‘ta’limda ijtimoiy sheriklik’ tushunchasining yagona ta’rifi yo’q. Xorijiy, jumladan, rus tadqiqotchilari tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan ayrim ta’riflar berilgan:

1. Ta’lim muassasalarining mehnat bozori subyektlari va muassasalari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligining alohida turi bo‘lib, u jarayonning barcha ishtirokchilari manfaatlarini maksimal muvofiqlashtirish va amalga oshirishga qaratiladi.

2. Ishonch, umumiy maqsad va qadriyatlar, ixtiyoriy va uzoq muddatli munosabatlar, shuningdek, hamkorlik va rivojlanish natijasida tomonlarning o‘zaro mas’uliyatini tan olish bilan tavsiflanadigan ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyatning alohida turi.

I.M.Remorenkoning fikriga ko‘ra, ta’limga nisbatan ijtimoiy sheriklik deb quyidagilar tushuniladi:

- muayyan mutaxassislar jamoasining ijtimoiy guruhlar o‘rtasida sodir bo‘luvchi ta’lim tizimi doirasidagi hamkorligi;

- ta’lim tizimi xodimlarining ishlab chiqarishning boshqa sohalari vakillariga murojaat qilish orqali kiritadigan hamkorligi;

- fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ko‘maklashuvchi ijtimoiy hayotning maxsus sohasi sifatida ta’lim tizimi tashabbusi bilan sodir bo‘luvchi hamkorlik.

Bizningcha, ta’limda ijtimoiy sheriklik masalasini klaster yondashuvidan alohida holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki ijtimoiy sheriklikdan ko‘zlangan maqsad klaster mohiyati va tamoyillarida o‘z ifodasini topgan. Demak, xorijiy olimlarning mazkur tushunchasiga bergen ta’riflarida uning klaster yondashuvi bilan aloqadorligining aks etmaganligi ushbu ta’riflar isloh qilishga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda biz “ta’limda ijtimoiy sheriklik” tushunchasining quyidagi ta’rifini taklif qilamiz: ta’lim bilan aloqador subyektlar, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyoriy va uzoq muddatli klaster yondashuv tamoyillariga asoslangan o‘zaro manfaatlari hamkorlik shaklidir.

Bo‘lajak adabiyot fani o‘qituvchilarini tayyorlashning metodik tizimi faoliyat ko‘rsatish va tarkib toptirishning umumiy maqsadi, yagona boshqaruv tuzilmasi va o‘zaro nazorat tamoyillariga asoslanishi, birlashtirilgan tashkiliy ta’lim shakllari majmui yo‘lga qo‘yilishi lozim. Unda viloyatdaggi ta’lim muassasalari, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagog xodimlari va

tarbiyachilari, o‘quvchilar guruhlari bilan yaqin munosabatlar ta’milanadi, ya’ni ijtimoiy sheriklik yo‘lga qo‘yiladi [4].

Ijtimoiy sheriklik odamlar va guruhlarning bir-biriga ta’sir etish jarayonidir. Bu jarayondagi har bir harakat o‘zaro hamkorlikning maqsad va vazifalari, kutilayotgan natijasi bilan belgilanadi. Har qanday o‘zaro hamkorlik kamida ikkita ishtirokchini – interaktantni o‘z ichiga oladi va bizning sharoitimidza bu maktab o‘qituvchilari, talabalar, institut metodist olimlari va talabalar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bu holatda ijtimoiy sheriklik bir xil harakat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati boshqa shaxs yoki kishilar guruhiga qaratilgandir.

## NATIJALAR

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida adabiyot ta’limi klasterining shakllaridan biri hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishdan iboratdir. Pedagogikada hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyalari o‘qitishning ikki yoki ko‘p tomonlama hamkorligini nazarda tutadi. Hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalari ko‘proq o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimiga asoslanadi [5]. Unda o‘quvchilar tomonidan fan bo‘yicha materiallarni qayta ishslash, loyihalash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bahs, munozaraga asoslangan mashg‘ulotlar nazarda tutiladi. Hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyasi 1980-1990-yillarda amerikalik olimlar: R.Slatin, R.Jonson, D.Jonson, Sh.Sharonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu texnologiya didaktikada nisbatan oldinroq – 1970-yillarda Angliya, Germaniya, Kanada, Yaponiya va Isroi kabi mamlakatlarning ta’lim tizimida paydo bo‘lgan va keng qo‘llanilgan. Hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyasining jamoada o‘qitish (R.Slatin), kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slatin) kabi metodlari mavjud.

## XULOSA VA MUONZARA

Bugungi kun amaliyotida adabiyot o‘qitish metodikasi maktabda adabiyot o‘qitish muammolari, maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi. Bu bevosita maktabda ilmiy mavzu sifatida adabiyot masalasini ishlab chiqish, o‘rta maktabda adabiyot fanining mazmuni va tuzilishini qurish bilan bog‘liq. Ammo amaliyotning bu shaklida adabiyot ta’limining uzviyligi va uzlusizligi masalasi ochiq qoladi. Har bir ta’lim bosqichida masalaga alohida

yondashuvning mavjudligi adabiyot ta'limida yaxlitlikni ta'minlay olmaydi. Ta'lim shakllarida adabiyot ta'limi mashg'ulotlari kursi ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy maqsadlariga, ilmiy bilimlar talablariga va o'quvchilarning (ta'lim oluvchilarning) yosh xususiyatlariga javob berishi kerak. Ta'limda integratsiyani ta'minlash, uzviylik va uzlusizlikni qaror toptirish dolzARB masala ekan, tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, buni klaster yondashuvi asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Umumiy o'rta ta'lim klaster zanjirida adabiyot ta'limi o'rta bo'g'ini sifatida o'quvchilarning adabiy kompetensiyalari shakllanuvchi muhim bosqich ekanligi ko'zga tashlandi. Uning mazmun va shakl bo'yicha xususiyatlarini aniqlashtirish adabiyot ta'limi ilmiy jamoatchiligi oldidagi muhim masalalardan biridir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Axatov D.A. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy

pedagogik texnologiyalar. O'quv-uslubiy qo'llanma. NDPI, Navoiy, 2012. –B.33.

2. Nikitin M.V. Ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishni boshqarishni modernizatsiya qilish: monografiya. – M., 2021. – B.167.

3. Piskunova E.V., Kondrakova I.E., Soloveikina M.P. va boshqalar ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik texnologiyalari: O'quv-uslubiy majmua. - SPb.: nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti nashriyoti. A.I.Gertsen, 2018. – B.120.

4. Remorenko I.M. Ta'limda "ijtimoiy sheriklik": konseptsiya va faoliyat // Yangi shahar: hayot sifatini o'zgartirish uchun ta'lim. - M.; Sankt-Peterburg: Yugorsk, 2013. – b. 12.

5. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped.fan.b.fan doktori (DSc) diss. Chirchiq. 2021.; Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish. Ped. fan. b. fal. dok. diss. Chirchiq. 2021.

